



FARG‘ONA VILOYATI MARG‘ILON SHAHAR HOKIMINING Q A R O R I

2022 - yil 10 - may

175-11-168-Q/22

Marg‘ilon shahar hokimligi

Farg‘ona tumanlararo ma‘muriy sudining 10.11.2021 yil kungi hamda Marg‘ilon shahar ma‘muriy sudining 10.08.2020 yil kungi hal qiluv qarorlarining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

Farg‘ona tumanlararo sudning 10.11.2021 yil kungi hal qiluv qarori bilan Axunov Davronjon Bannabdjanoichning javobgar Marg‘ilon shahar hokimligi va Yermulkkadastr xizmati Marg‘ilon shahar bo‘limiga nisbatan, javobgarining yer bermayotganlik xatti-harakatini qonunga xilof deb topib, Marg‘ilon shahar, Yangi Farg‘ona ko‘chasi, 95-uy oldidagi va yo‘lga tutash qismi bo‘lgan 150 kv.metr yer maydoni, Marg‘ilon shahar, Mustaqillik ko‘chasi, 464-uyning yon tomonidagi (466)-uy tomonidagi bo‘sh turgan 60 kv.metr yer maydoni, Marg‘ilon shahar, Yangi Marg‘ilon shaharchasi, Satkak ko‘chasi boshlanish qismi o‘rtasida (qurilishi tugallanmagan bino oldida) 120 kv.metr yer maydoni, Marg‘ilon shahar, B.Marg‘iloniy ko‘chasi, 6-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining sharqiy tomonidan yonidagi 140 kv.metr yer maydoni, Marg‘ilon shahar, Mustaqillik ko‘chasi, 462-uyning Karnaychi ko‘chasiga tutash tomonidan yonidagi bo‘sh turgan 60 kv.metr yer maydonini va shahar hududidagi zahiradagi boshqa bo‘sh yer maydonidan qolgan 138,60 kv.metr yer maydonini jami 718,60 kv.metr yer maydonini ikki qavatli savdo do‘koni qurish uchun ajratib berish majburiyatini yuklash to‘g‘risidagi arizasi qisman qanoatlantirilgan.

Muqaddam 23.12.2020 yilda qabul qilingan sud qarori qonuniy kuchda bo‘lgan vaqtda D.Axunovga Marg‘ilon shahar, Yangi Farg‘ona ko‘chasi, 95-uy oldidagi va yo‘lga tutash qismi bo‘lgan 150 kv.metr yer maydoni, Marg‘ilon shahar, Mustaqillik ko‘chasi, 464-uyning yon tomonidagi (466)-uy tomonidagi

bo'sh turgan 48 kv.metr yer maydoni shahar xokimining 03.04.2021 yil kungi 147-sonli qarori bilan ajratib berilgan.

Shuningdek, Marg'ilon shahar, Yangi Marg'ilon shaharchasi, Sadkak ko'chasi boshlanish qismi o'rtasida (qurilishi tugallanmagan bino oldida) 120 kv.metr yer maydoni va Marg'ilon shahar, B.Marg'iloniy ko'chasi, 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining sharqiy tomonidan bino yonidagi 140 kv.metr yer maydonlarini D.Axunovga ajratib berish maqsadida "YERELEKTRON-63" tizimiga 2021 yil 17 iyun kuni kiritilgan Y-1730412/B-10264-xos raqamli va Y-1730412/B-12645-xos raqamli arizalarga vakolatli tashkilotlar tomonidan ijobiy xulosalar kiritilgan.

Marg'ilon shahar ma'muriy sudining 2020 yil 10 avgust kungi hal qiluv qarori bilan javobgarlar Marg'ilon shahar hokimligi hamda Marg'ilon shahar arxitektura va qurilish boshqarmasi zimmasiga Marg'ilon shahar Ipakchilar shaharchasi Buyum bozoriga tutash bo'lgan hududidan 95 kv.m yer maydonini Sabirov Muxtorali Axmadalievichga savdo do'koni qurish uchun ajratib berish majburiyati yuklatilgan. M.Sabirovga Marg'ilon shahar Ipakchilar shaharchasi Buyum bozoriga tutash bo'lgan hududidan 95 kv.m yer maydoni ajratib berish imkoni bo'lmaganligi sababli, o'rniga Marg'ilon shahar hokimligi tomonidan shahar hududidagi boshqa Marg'ilon shahar "Saxovat" MFY, B.Marg'iloniy ko'chasi 88-ko'p qavatli turar joy binosining sharqiy qismidagi bo'sh yer maydonidan 60 kv.m yer maydoni hamda Marg'ilon shahar "Yangi bog'" MFY, Mustaqillik ko'chasi bilan Karnaychi ko'chalari kesishmasi, ko'p qavatli turar joy binosi yonida joylashgan 35 kv.m bo'sh yer maydonlarini ajratib berish taklifi berilib, M.Sabirovning roziligi olingan.

Shuningdek, Marg'ilon shahar "Saxovat" MFY, B.Marg'iloniy ko'chasi 88-ko'p qavatli turar joy binosining sharqiy qismidagi bo'sh yer maydonidan 60 kv.m yer maydoni hamda Marg'ilon shahar "Yangi Bog'" MFY, Mustaqillik ko'chasi bilan Karnaychi ko'chalari kesishmasi, ko'p qavatli turar joy binosi yonida joylashgan 35 kv.m bo'sh yer maydonlari M.Sabirovga ajratib berish maqsadida "YERELEKTRON-63" tizimiga 2021 yil 19 iyun kuni kiritilgan Y-1730412/B-12646-xos raqamli arizaga hamda Kadastr agentligi Farg'ona viloyat boshqarmasi Marg'ilon shahar bo'limining 2022 yil 18 fevral kungi so'rovnomalariga vakolatli tashkilotlar tomonidan ijobiy xulosalar kiritilgan.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyundagi

PF-6243-sonli “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan xuquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoning 4-bandiga asosan “Mahaliy davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlariga oid vakolatlari, ular yuzasidan qaror, farmoish yoki boshqa turdagi hujjat qabul qilish huquqi” 2021 yil 1 avgust kundan bekor qilingan bo‘lsada, hozirda sudning 2021 yil kungi 10 noyabrdagi majburiyat yuklash to‘g‘risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchda hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat’iy va O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15,110,114-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 28.07.2021 yildagi “Sudlar to‘g‘risida” gi Qonuni 10-moddasi, Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 16-moddasi, Yer kodeksining 41-moddasi 4-qismi hamda O‘zbekiston Respublikasining Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi Qonunining 6, 7, 8, 11, 12, 18-moddalari talablariga asosan, Farg‘ona tumanlararo ma’muriy sudining 10.11.2021 yil kungi hamda Marg‘ilon shahar ma’muriy sudining 10.08.2020 yil kungi hal qiluv qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Farg‘ona tumanlararo ma’muriy sudining 10.11.2021 yil kungi hamda Marg‘ilon shahar ma’muriy sudining 10.08.2020 yil kungi hal qiluv qarorlari ijrosini ta’minlansin.

2. Farg‘ona tumanlararo ma’muriy sudining 10.11.2021 yil kungi hal qiluv qaroriga asosan “Chorchinor” mahalla fuqarolar yig‘ini A.To‘qay ko‘chasida joylashgan sobiq idora va omborxonada bino inshootlari egallagan va foydalanishidagi 718.60 m² yer maydoni davlat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilganligi sababli, sudning hal qiluv qarorida ko‘rsatilgan:

- Marg‘ilon shahar, Yangi Marg‘ilon shaharchasi Satkak ko‘chasi boshlanish qismi o‘rtasidagi qurilishi tugallanmagan bino (hozirgi kundagi bolalar bog‘chasi) yonidagi 120 kv.m yer maydoni;

- Marg‘ilon shahar, B.Marg‘iloniy ko‘chasi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabining sharqiy tomonidagi 140 kv.m. yer maydoni ikki qavatli savdo-

maishiy xizmat ko'rsatish binolari qurish uchun:

- sud qarorda ko'rsatilgan qolgan 138,60 kv.m yer maydoni o'rniga hahar hududida bo'sh turgan zahiradagi yer maydonlari mavjud bo'lmaganligi sababli "Navro'z" MFY, "Yo'ldosh" shaharchasi hududidagi shahar hokimligi zahirasidagi bo'sh yer maydoni noturar joy sifatida Axunov Davronjon Bannabdjanovichga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

3. Marg'ilon shahar ma'muriy sudining 10.08.2020 yil kungi hal qiluv qaroriga asosan:

- Marg'ilon shahar "Saxovat" MFY, B.Marg'iloniy ko'chasi 88-ko'p qavatli turar joy binosining sharqiy qismidagi bo'sh yer maydonidan 60 kv.m yer maydoni;

- Marg'ilon shahar "Yangi bog'" MFY, Mustaqillik ko'chasi bilan Karnaychi ko'chalari kesishmasi, ko'p qavatli turar joy binosi yonida joylashgan 35 kv.m bo'sh yer maydonlari Sabirov Muxtoraliga ikki qavatli savdo-maishiy xizmat ko'rsatish binolari qurish uchun doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

4. Sudning hal qiluv qarorida ko'rsatilgan Marg'ilon shahar, Yangi Farg'ona ko'chasi, 95-uy oldidagi va yo'lga tutash qismi bo'lgan 150 kv.metr yer maydoni hamda Marg'ilon shahar, Mustaqillik ko'chasi, 464-uyning yon tomonidagi (466)-uy tomonidagi bo'sh turgan 48 kv.metr yer maydoni muqaddam 23.12.2020 yilda qabul qilingan sud qarori qonuniy kuchda bo'lgan vaqtda shahar hokimining 03.04.2021 yil kungi 147-sonli qarori bilan D.Axunovga ajratib berilganligi inobatga olinsin.

5. Kadastr agentligi shahar bo'limi (P.Qo'chqorov)ga yer hisoboti balansiga tegishli o'zgartirish kiritish vazifasi topshirilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o'rinbosari B.Bozorov zimmasiga yuklatilsin.

Marg'ilon shahar hokimi



A.Ziyavitdinov